



PEDAGOGIK METODLARDA CHET TILLARINI BILISHNING AHAMIYATI

Ibragimxodjayeva Hilola Akmal qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti
2-fakulteti, 1-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar: Raxmonova Sardora Muminjonovna

O'zbekiston jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik jarayonda chet tillarini bilishning ahamiyati, zamonaviy metodlarni qo'llashdagi o'rni hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogika, chet tillari, innovatsiya, motivatsiya, global ta'lim, kompetensiya, interaktiv, vizual.*

Annotation: *This article analyzes the importance of knowing foreign languages in the pedagogical process, their role in applying modern teaching methods and their impact on the activities of both teachers and students from a scientific and theoretical perspective.*

Key words: *pedagogy, foreign languages, innovation, motivation, global education, competence, interactive, visual.*

Аннотация: *В данной статье раскрыта значимость знания иностранных языков в педагогическом процессе, их роль в применении современных методов обучения, а также влияние на деятельность преподавателя и учащихся с научно-теоретической точки зрения.*

Ключевые слова: *педагогика, иностранные языки, инновация, мотивация, глобальное образование, компетенция, интерактивный, визуальный.*

Kirish: Globallashuv jarayoni keskin tezlashgan bugungi davrda chet tillarini bilish inson uchun zaruratga aylandi. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun chet tilini bilish professional kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chet tillari orqali xorijiy tajribalarni o'rganish, ilg'or metodlarni tatbiq etish va zamonaviy texnologiyalarni dars jarayoniga joriy qilish imkoniyatlari kengayadi. Shuning uchun ham bugungi kunda pedagogik metodlarning rivojlanishi bevosita chet tillarini bilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Muhokama va munozaralar: Davlat siyosatida chet tillarining o'rni ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida chet tillarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentning chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qarorlari asosida maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini chuqur o'qitish bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi. Mazkur qarorlar asosida: pedagoglarning chet tili



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sertifikatiga ega bo‘lishi rag‘batlantirildi; xorijiy darsliklar va ta‘lim platformalari joriy etildi; xalqaro test tizimlari bilan ishlash yo‘lga qo‘yildi. Bu esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga va zamonaviy pedagogik metodlarni o‘zlashtirishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitish tizimi yangilanmoqda. Endi tarjima qilish metodikalari takomillashtiriladi, chet tillarini bilish reytingi yuritiladi, o‘qituvchilar uchun malaka talablari belgilanadi. “Bog‘cha – maktab – oliy ta‘lim – korxonalar” zanjiri orqali aholiga mos darslik va tavsiyalar joriy etiladi.

Bugungi ta‘lim tizimida “Project-based learning”, “Case study”, “Debate”, “Blended learning” kabi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlarning aksariyati xorijiy tajribaga asoslangan bo‘lib, ularni to‘liq o‘zlashtirish uchun o‘qituvchining chet tilini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini biladigan pedagog: xorijiy metodik adabiyotlardan foydalana oladi, yangi dars uslublarini tez o‘zlashtiradi, ta‘lim jarayo nini innovatsion shaklda tashkil etadi. Natijada darslar an‘anaviy shakldan interfaol, ijodiy va natijaviy ko‘rinishga o‘tadi. Bu esa kelajak avlodning samarali bilim olishiga va yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, chet tilini o‘rganish nafaqat kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki o‘quvchining xotira hajmini kengaytirish, e‘tiborini jamlash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Xususan, Lightbown va Spada tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tilini muloqotga asoslangan metodlar yordamida o‘qitish o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga, ya‘ni fikrlash faolligi, tezkor tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga ijodiy ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy asoslab berilgan.

Mashhur davlat arbobi Nelson Mandela quyidagi fikrni bildirgan: “Agar inson bilan u tushunadigan tilda gaplashingiz — uning aqliga yetasiz, agar o‘z tilida gaplashingiz — uning qalbiga yetasiz.” Bu fikr ta‘lim jarayonida ham juda dolzarb hisoblanadi. O‘qituvchi til orqali nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchining qalbiga, fikrlash dunyosiga ta‘sir o‘tkazadi. Shu sababli ham hozirgi kunda bir nechta tillarni bilish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shuningdek, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy bir necha tillarni mukammal bilgan va bu uning ilmiy hamda ijodiy salohiyatini yuksaltirgan. Bu esa chet tillarining inson tafakkurini kengaytirishdagi ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

Natija va mulohazalar: Chet tilini biladigan pedagog darslarni interfaol, qiziqarli va samarali tashkil eta oladi. Xorijiy video darslar, onlayn platformalar, interaktiv ilovalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi, ijodiy yondashuvi kuchayadi, ta‘limga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ortadi. Shuningdek, chet tilida o‘tiladigan elementlar o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni ham oshiradi. Kelajakda ular uchun keng imkoniyatlar yaratib, o‘z ustida ishlab rivojlanishga yordam beradi. Bu esa hozirgi rivojlanib borayotgan davr talabi ham demakdir. Kognitiv lingvistik yondashuviga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni faqat qoidalarni yodlash emas, balki ma‘noni ongda tasavvur qilish asosida amalga oshadi. Shu sababli chet tilini real vaziyatlar, vizual obrazlar va muloqot asosida o‘rgatish pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi. Xorijiy tillarni bilish pedagoglar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



uchun ajralmas va zarur ko‘nikmadir. Bu ularga xorijiy seminar va konferensiyalarda qatnashish, xalqaro grant va loyihalarda ishtirok etish, o‘z ustida doimiy ishlash imkoniyatini beradi. Bugungi kunda IELTS, CEFR, TOEFL kabi sertifikatlar pedagoglar uchun nafaqat til bilimi belgisi, balki professional mavqeni oshiruvchi vosita ham hisoblanadi.

Xulosa: Bir nechta tillarni bilish insonni faqat bir madaniy doiraga bog‘lamaydi — u turli tilli va madaniyatli insonlar bilan madaniy hamda ijtimoiy muloqotda erkin, moslashuvchan bo‘lish imkonini beradi, bu esa global dunyoqarash va keng dunyo bilan bog‘lanish poydevorini yaratadi. Shunday ekan, pedagogik metodlarda til o‘rgatishni faqat grammatika yoki so‘z boyligini oshirish bilan chegaralab qolmaslik lozim. Til – bu shaxsni umumiy jihatdan rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish va uning global maydonda muloqotga moslashuvchanligini ta‘minlovchi muhim vositadir. Demak, zamonaviy ta‘lim jarayonida lingvistik bilimlarni keng qamrovli shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyaga aylantirish — istiqboldagi eng dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lightbown,P. & Spada,N.(2013). How Languages are learned. Oxford University Press.

Internetdan olingan manbalar:

2. <https://oz.sputniknews.uz/20210507/ozbekistonda-chet-tillarini-oqitish-boyicha-tizim-yangilanadi--mirziyoev-qarori-18634349.html>
3. www.goodreads.com. Quote by Nelson Mandela.